

DINIY TASHKILOTLAR TO‘G‘RISIDAGI QONUNCHILIKNI BUZISHNING JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI

Obidova Umida Miryunus qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Jinoyat qo‘nunchiligini qo‘llash nazariyasi
va amaliyoti” mutaxassisligi magistranti
E-mail: obidovaumida@mail.ru
+998949280414

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada vijdon erkinligini kafolatlovchi tuzilma sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan diniy tashkilotlarning huquqiy maqomi, uning diniy ehtiyojlarni qondirishdagi o‘rni, huquqlari hamda majburiyatları tahlil qilingan. Bundan tashqari, diniy tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslari, diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchilik hamda ularni buzganlik uchun javobgarlik masalalari o‘rganilgan. Maqolada milliy jinoyat qonunchiligidan tegishli masala bo‘yicha amaldagi holati, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilingan holda o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: diniy tashkilot, vijdon erkinligi, diniy marosim, diniy konfessiya, diniy ta’lim muassasasi.

УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ НАЗНАЧЕНИЯ НАРУШЕНИЙ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О РЕЛИГИОЗНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Обидова Умида Мирюнус қизи,
Ташкентский государственный юридический
университет, магистр теории и практики уголовного права
эл.почты: obidovaumida@mail.ru
+998949280414

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется правовой статус религиозных организаций, их роль, права и обязанности в удовлетворении религиозных потребностей, которые важны как структура, гарантирующая свободу совести. Кроме того, были изучены правовые основы деятельности религиозных организаций, законодательство о религиозных организациях и вопросы ответственности за их нарушение. В статье рассматривается современное состояние нашего отечественного уголовного законодательства

по актуальной проблеме с проведением сравнительного анализа опыта развитых зарубежных стран.

Ключевые слова: религиозная организация, свобода совести, религиозный обряд, религиозное вероисповедание, религиозное образовательное учреждение.

CRIMINAL LEGAL ASSIGNMENTS OF VIOLATIONS OF LEGISLATION ON RELIGIOUS ORGANIZATIONS

Obidova Umida Miryunus kizi

Tashkent State Law University, Master's degree in Theory and Practice of
Criminal Law

e-mail: obidovaumida@mail.ru

+998949280414

ABSTRACT

This article analyzes the legal status of religious organizations, their role, rights and obligations in meeting religious needs, which are important as a structure that guarantees freedom of conscience. In addition, the legal framework for the activities of religious organizations, the legislation on religious organizations and the issues of liability for their violation were studied. The article examines the current state of national criminal law on the relevant issue, a comparative analysis of the experience of developed countries.

Keywords: religious organization, freedom of conscience, religious ceremony, religious denomination, religious educational institution.

KIRISH

Vijdon erkinligi bu fuqarolarning xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik bo'yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir. Fuqaro dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod qilmaslikka, ibodatlarda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda ishtirok etishga yoki ishtirok etmaslikka, diniy ta'lim olishga nisbatan o'z munosabatini belgilayotganda uni u yoki bu tarzda majburlashga yo'l qo'yilmaydi [1]. Fuqarolarning vijdon erkinligini kafolatlovchi tuzilmalardan biri diniy tashkilotlar hisoblanadi.

Diniy tashkilotlar deganda ixtiyoriy, teng huquqli, diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko'maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan o'z-o'zini boshqaruvchi uyushma tushuniladi. 2021 yil 5 iyuldaggi O'RQ-699-sonli "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuning 3-moddasiga ko'ra, diniy tashkilot —

fuqarolarning belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, birgalikda dinga e’tiqod qilish, ibodat qilish, diniy rasm-rusumlar va marosimlarni bajarish maqsadida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z ishtirokchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan ko‘ngilli birlashmasi (mahalliy diniy tashkilot, diniy ta’lim muassasasi va diniy tashkilotlarning O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha markaziy boshqaruv organi).

Fuqaroning biror diniy tashkilotga a’zoligi uning boshqa shaxslar bilan tengligini cheklab qo‘ymaydi. Diniy tashkilotlardagi eng muhim belgi - o‘zini o‘zi boshqarishi va davlatdan ajratilganligi. Bunda shunisi ahamiyatlici, agar diniy tashkilot faoliyati qonunchilikka zid kelsagina, davlat tashkilotning ichki aqidaviy ishlariga aralashishni boshlaydi, o‘shandagina ular o‘rtasidagi chegara buziladi.

Diniy tashkilotlar tashkil topish, ish yuritish, xodimlarni tanlash, tayinlash va almashtirish huquqiga ega. Ular o‘z ustavlari asosida faoliyat yuritadi. O‘zbekiston Musulmonlari idorasi, Rus pravoslav cherkovining Toshkent va O‘rta Osiyo Yeparxiyasi, masjidlar, cherkovlar, o‘quv yurtlari, mahalliy tashkilotlar o‘z boshqaruv organlariga ega va ular ierarxiya tizimida tashkil topgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har qanday uyushma diniy tashkilot sifatida Adliya vazirligi (respublika) va viloyat tuman shahar (hududiy) adliya boshqarmalari tomonidan ro‘yxata olinib, yuridik shaxsga aylanadi.

Boshqa tuzilmalarga o‘xshab diniy tashkilotlarning ham bir qator majburiyatları bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga va o‘z ustavi qoidalariга rioya etishi; ibodat qilish, diniy rasm-rusumlar yoki marosimlar uchun mo‘ljallangan joylarda qulay shart-sharoitlar yaratishi; diniy tashkilot egaligida (foydalanishida) bo‘lgan moddiy madaniy meros ob’ektlarining but saqlanishini ta’minlashi, bunda madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan talablarni majburiy tartibda bajarishi, arxitektura yodgorliklarini restavratsiya qilish bo‘yicha loyiha hujjatlari asosida qurilish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirishi; adliya organlarini tadbirlar (konferensiylar, seminarlar va boshqalar, bundan diniy rasm-rusumlar va marosimlar mustasno) erkin o‘tkazilishida ko‘maklashish uchun ularning o‘tkazilishi to‘g‘risida xabardor etishi; adliya organlarini rahbar organning tarkibi o‘zgarganligi to‘g‘risida ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran bir oy ichida xabardor qilishi; adliya organlariga o‘zining

o‘tgan yilgi faoliyati to‘g‘risida belgilangan shaklda har yili axborot taqdim etishi shart.

Diniy tashkilotlar o‘z faoliyatini qonunchilikka muvofiq mustaqil ravishda amalga oshiradi.

Diniy tashkilotlar davlat organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdon shaxslarining diniy tashkilotlar huquqlari va erkinliklarini buzuvchi harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga murojaat qilganda davlat bojini to‘lashdan ozod etlganligi davlatimizda diniy tuzilmalarga keng imkoniyat va yengillik berilganligidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Kanadada din erkinligi “Kanada Inson huquqlari va erkinliklari xartiyasi” va “Kanadaning Inson huquqlari to‘g‘risidagi qonuni” bilan himoyalangan[2]. Inson huquqlari bo‘yicha federal va provinsiya qonunlari diniy sabablarga ko‘ra kamsitishni taqiqlaydi. Shuningdek, qonun diniy guruahlarni ro‘yxatdan o‘tkazishni talab qilmaydi. Agarda diniy tashkilot notijorat tashkilot sifatida ro‘yxatdan o‘tishni istasa, Kanada daromad agentligining xayriya ishlari bo‘limida ro‘yxatdan o‘tkaziladi va diniy guruahlarga soliqdan ozodlik maqomi beriladi. Soliqdan ozodlik maqomiga ega bo‘lish va uni saqlab qolish uchun guruh siyosiy bo‘lmagan bo‘lishi va davriy tekshiruvlardan o‘tishi kerak. Bundan tashqari, ruhoniylar azolariga turli federal imtiyozlar beriladi, jumladan, soliq kodeksi bo‘yicha uy-joy imtiyozlari [3]. Soliqdan ozod qilingan diniy guruahlarga xayr-ehson qilgan fuqarolar federal daromad solig‘i chegirmalariga ega bo‘lish huquqini beruvchi federal soliq kvitansiyasini oladilar.

Kanadada diniy ta’lim beruvchi tashkilotlar uchun ham bir qancha qulayliklar yaratilgan. Jumladan, 6 ta viloyat o‘z hududida joylashgan diniy maktablarni to‘liq yoki qisman moliyalashtiradi. Yaponiya davlatida esa din erkinligi Konstitutsiyaning o‘zidayoq kafolatlangan. Davlatdan esa diniy ta’lim berish yoki boshqa diniy faoliyat bilan shug‘ullanishdan tiyilish talab qilingan[4]. O‘z navbatida, diniy tashkilotlarga har qanday siyosiy hokimiyatni amalga oshirish taqiqlangan. Hukumat diniy guruhlardan ro‘yxatdan o‘tish yoki ariza berishni talab qilmaydi. Agar diniy guruh qonunchilikdagi qoidalarni buzsa, hokimiyat diniy korporatsiyaning notijorat faoliyatini bir yilgacha to‘xtatib qo‘yish huquqigaega.

Germaniyada diniy va mafkuraviy jamoalarga Germaniya Konstitutsiyasining 4-moddasida alohida asosiy huquqlar berilgan. Nafaqat xristian cherkovlari, asosan Rim-katolik cherkovi va protestant cherkovi, balki iudaizm, islam va buddizm kabi dunyoning buyuk dirlari jamoalari hamda Baxay va Iegova kabi kichikroq diniy

jamoalar ham ushbu himoya ostida rivojlangan. Bu xilma-xillik Germaniyada har bir kishi o‘z manaviy uyini topishini taminlaydi.

Germaniya hukumati cherkovlar va boshqa diniy jamoalarni diniy erkinlik berish orqali himoya qiladi. Bundan tashqari, hukumat qonunchiligidagi diniy va mafkuraviy jamoalar uchun ko‘plab maxsus qoidalar va imtiyozlar nazarda tutilgan. Ulardan eng mashhuri va eng muhimi – xayriya va soliqdan ozod qilingan tashkilot maqomini berishdir. Germaniya soliq organlari tomonidan etirof etilgan xayriya tashkiloti sifatida diniy tashkilot ko‘pgina soliqlarga (masalan, korporativ daromad solig‘i, savdo solig‘i, ko‘chmas mulk solig‘i va boshqalar) javobgar bo‘lmasdan ishlashi mumkin.

Diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonunchilik hamda ularni buzganlik uchun javobgarlik masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Jinoyat kodeksining 145-moddasida vijdon erkinligini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Moddaning birinchi qismiga ko‘ra, diniy tashkilotning qonuniy faoliyatiga yoki diniy marosimlarni o‘tkazishga to‘sinqilik qilish bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish, yoxud uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro Pakning 18-moddasi 1-qismi va “Inson huquqlari umumiyligi Deklaratsiyasi”ning 18-moddasi bir-biridan farq qilmaydi va 145-modda ham shu halqaro hujjalarga muvofiq ravishda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga kiritilgan.

Mazkur modda O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 1 maydagi qonuniga ko‘ra Jinoyat kodeksiga kiritilgan. Mazkur moddada nazarda tutilgan jinoyat o‘ziga hos hususiyatga ega bo‘lib, uch qismdan iborat bo‘lgan modda 3 hil ob’ektga zarar yetishini ko‘rsatadi. Masalan, diniy tashkilotning qonuniy faoliyatiga yoki diniy marosimlarni o‘tkazishga to‘sinqilik qilishda jinoyat ob’ekti - diniy tashkilotlarning qonuniy faoliyati,

voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, xuddi shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o‘qitishda — fuqarolarning hoxlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqi bo‘lsa,

fuqarolarning o‘z fuqarolik huquqlarini amalga oshirishlariga yoki fuqarolik burchlarini bajarishlariga to‘sinqilik qilish bilan, dindorlardan majburiy yig‘im undirish va soliq olish bilan yoxud shaxsnинг sha’ni va obro’sini kamsituvchi choratadbirlar qo‘llash bilan yoki diniy ta’lim olishda hamda fuqaro dinga nisbatan, dinga

e'tiqod qilish yoki e'tiqod qilmaslikka nisbatan, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka nisbatan o'z munosabatini belgilayotgan paytda majburlash bilan bog'liq diniy faoliyat yuritish, shuningdek diniy marosimlar o'tkazishni tashkil etish shaxs badaniga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazilishda— fuqarolarning sog'lig'i hisoblanadi.

Mazkur moddada nazarda tutilgan jinoyatning ob'ektiv tomonini tahlil qilganda aytish kerakki, diniy marosimlarni o'tkazishga to'sqinlik qilish uchun moddaning birinchi qismida javobgarlik belgilangan.

Diniy marosim diniy ye'tiqod, ibodatning amaldagi ko'rinishi, barcha dinning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Qadimda odamlar g'ayritabiyy kuchlarga turli marosimlar orqali ijobjiy yoki salbiy ta'sir yetish mumkin deb hisoblaganlar. Islom dinida aqiba, amri ma'ruf, xatna, ro'za tutish va ramazon hayiti, qurbanlik qilish va qurban hayiti, namoz, haj, janoza, sunnat, nikoh, dafn kabi diniy marosimlar bor. Yahudiylikda — ibodat, shanba kuni, tug'ilish, diniy balog'at, nikoh va dafn marosimlari alohida o'rin tutadi. Xristian dini marosimlari misteriyalar ta'sirida shakllangan va asosan Iso Masiq shaxsi bilan bog'liq. Xristianlikdagi pravoslav va katoliklar yetti sirli marosim — cho'qintirish, non va vino totish, hushbo'y moy surish, badanni yog'lash, nikoh, tavba-tazarru va kashishlik (rohiblikka qabul qilish)ni tan oladilar. Protestantlar yesa faqat cho'qintirish, non va vino totish marosimini ye'tirof qiladilar. Buddizmda yertalabki va kechki ibodat, monaxlarga oziq-ovqat keltirish, tiyilish kuni, dunyoga kelish va balog'atga yetishini nishonlash, nikoh, yangi uyga ko'chish, ajdodlarni xotirlash va dafn marosimlari mavjud.

Diniy marosimlarda qatnashish fuqarolarning xususiy ishidir va hech qanday huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmaydi. Diniy marosimlarni ibodatxonalarda, diniy tashkilot muassasalarida, ziyoratgohlarda, qabristonlarda, fuqarolarning xonadonlari va uylarida o'tkaziladi.

Moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan diniy marosimlarni o'tkazishga to'sqinlik qilish uchun javobgarlikda aynan qayerda o'tkazilayotgan diniy marosim ekanligi ko'rsatilmagan. Demak, qayerda bo'lishidan qat'iy nazar, uyda yoki diniy tashkilot hududida bo'lishidan qatiy nazar, diniy marosimlarni o'tkazishga to'sqinlik qiluvchi hatti-harakatlar – marosim o'tkazishga yo'l qo'ymaslik uchun javobgarlik belgilangan.

Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish har xil usullar orqali amalga oshirilishi mumkin. Masalan, bolaga pul taklif qilish, yaxshigina moddiy manfaatdorlik, biror garoyib yoki qimmat buyum sovg'a qilish. Jalb etishning aynan qanday usulda amalga oshirilishi qonunchilik tomonidan cheklanmaganligi sababli

qaysi usulda amalga oshirilsa ham javobgarlik keltirib chiqaradi. Bunda bolani diniy tashkilotga jalb etishda bolaning ixtiyoriy rozi bo‘lganligi yoki bo‘lmasligi ahamiyatga ega emas.

Lekin dinga o‘qitish bundan farqli bo‘lib, shaxsni voyaga yetmagan bolalarni dinga o‘qitishda ayblab javobgarlikka tortish uchun voyaga yetmagan bolaning ixtiyoriga yoki ota-onasi ixtiyoriga zid ravishda bo‘lishi javobgarlikning zaruriy sharti hisoblanadi. Agar ota-onani roziligi bilan bolani dinga o‘qitilsa, hech qanday javobgarlik keltirib chiqarmaydi.

Moddaning 3-qismiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, fuqarolarning o‘z fuqarolik huquqlarini amalga oshirishlariga yoki fuqarolik burchlarini bajarishlariga to‘sinqilik qilish bilan bog‘liq diniy faoliyat yuritish deganda masalan biror diniy tashkilot rahbari fuqaroni o‘zining fuqarolik burchini bajarishga to‘sinqilik qilsa javobgarlik keltirib chiqaradi. Fuqarolik burchlari deganda masalan soliq va mahalliy yig‘imlarni to‘lash (Konstitutsiyasi 51-modda), O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish (52-modda) kabi burchlarini keltirish mumkin. Fikrimizcha, shaxsni harbiy hizmatga ketishiga to‘sinqilik qilib, majburan dinga yo‘naltirish ham aynan fuqarolik burchlarini bajarishlariga to‘sinqilik qilish bilan bog‘liq diniy faoliyat yuritish hisoblanadi.

Bugungi kunda diniy tashkilotlarga bo‘lgan e’tibor - fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini ta’minalash maqsadida amalga oshirilmoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida so‘nggi 3 yil davomida diniy bag‘rikenglikni ta’minalash sohasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

BMT Bosh Assambleyasi 2018 yil 12 dekabrda “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasini qabul qildi. Hujjat loyihasini O‘zbekiston ishlab chiqqan edi BMTning barcha a’zo davlatlari loyihani ma’qullahdi. Rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi 2017 yilning sentyabr oyida BMT Bosh assambleyasining Nyu-Yorkdagи 72-sessiyasida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan.

2018 yil 16 apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3668-sonli Qaroriga muvofiq Qo‘mita huzurida faoliyat yuritadigan jamoyatchilik-maslahat organi hisoblanmish konfessiya ishlari bo‘yicha Kengashning yangi tarkibi tasdiqlanib kengash tarkibi 9 tadan 17 ta a’zoga – O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi. [5].

2019 yil 4 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4436-sonli qaroriga muvofiq Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning Ishki ishlar vazirligi O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi bilan jamiyatda vijdon erkinligi va diniy-ma’rifiy muhit barqarorligi kafolatlarini ta’minalash maqsadida mustahkam va doimiy hamkorlikni nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etildi.

Ayni paytda davlatimizda ja’mi 2276 ta diniy tashkilot, 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 2093 tasi musulmon tashkiloti, 166 ta xristian tashkiloti, 8 ta yahudiy jamoasi, 6 ta Buxoriylik jamiyati, 1 ta krishnachilar jamiyati va 1 ta budda ibodatxonasi shuningdek, O‘zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat ko‘rsatmoqda. [6].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, diniy tashkiltlar to‘g‘risidagi qonunchilikni buzishning jinoiy-huquqiy jihatlari tahlili jarayonida amaldagi Jinoyat Kodeksining 145-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan diniy marosimlarni o‘tkazishga to‘sinqilik qilish uchun javobgarlikda aynan qayerda o‘tkazilayotgan diniy marosim ekanligi ko‘rsatilmagan. Demak, qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar, uyda yoki diniy tashkilot hududida o‘tkazilayotgan bo‘lishidan qatiy nazar, diniy marosimlarni o‘tkazishga to‘sinqilik qiluvchi hatti-harakatlar – marosim o‘tkazishga yo‘l qo‘ymaslik uchun javobgarlik belgilangan. Lekin qonun chiqaruvchi diniy marosimlarni o‘tkazish boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga putur etkazmasligi lozimligini inobatga olgan holda, normaga aniqlik kiritishi, javobgarlik keltirib chiqarish uchun shaxs qonun hujjatlariga rioya etgan holda o‘tkazilayotgan diniy marosimiga to‘sinqilik qilishini aniqlashtirishi lozim.

Ikkinchidan, shaxsni voyaga yetmagan bolalarni dinga o‘qitishda ayblab javobgarlikka tortish uchun voyaga yetmagan bolaning ixtiyoriga yoki ota-onasi ixtiyoriga zid ravishda bo‘lishi javobgarlikning zaruriy sharti hisoblanadi. Demak, agar ota-onani roziligi bilan bola dinga o‘qitsa, hech qanday javobgarlik keltirib chiqarmaydi. Vaholanki, ba’zi ota-onalarning soddaligi yoki dinni chuqur bilmasligi o‘zi bilan birga bolasining ham har hil oqimlarga kirib ketishiga sabab bo‘layotganligi ayni haqiqat. Shuning uchun mazkur normaga o‘zgartirish kiritish, ota-onaning ixtiyori va roziligi masalasini dinga o‘qitish asosi sifatidan chiqarish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

REFERENCES

1. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni., 4-modda. Toshkent sh., 2021 yil 5 iyul, O‘RQ-699-son.
2. <https://settlement.org>
3. <https://www.state.gov>
4. <https://www.jstor.org>
5. <https://uz.wikisko.ru>
6. <https://www.strategy.uz>